

Mushuk va maymunchalar
Indoneziya xalq ertagi

Bir kun ko'chada ketayotgan mushuk yo'lida duch kelganni laqillatib borarkan, unga biryo'la ikkita maymuncha uchrab qolibdi.

Manmunchalar shu mahal katta daraxtning shoxida osilib turgan ari inini ko'rib qolishibdi. Ular:

- Hoy, mushuk, daraxt shoxida osilib turgan nima o'zi? - deb mushukdan so'rashibdi.

Mushuk ularga:

- E-e, bu mening buvamdand qolgan zang, - debdi.

- U qattiq jaranglaydimi? - deb so'rabdi maymunchalar.

- Bo'lmasa-chi, - debdi mushuk. - Borib zangni ursang bormi, ovozini butun mamlakat eshitadi.

- Chalib ko'rsak maylimi?

- Yo'q, bo'lmaydi, buvamning jahli chiqadi, - javob beribdi mushuk.

- Buvang o'zi bu yerda yo'q-ku, - deb mushukni avrashibdi maymunchalar.

- To'g'ri, buvam yo'qlar. Ammo u menga zangni qo'riqlashri, unga hech kim qo'l tekkizmasligini topshirgan.

- Bir martagina urishga ruxsat ber. Qanday jaranglashini eshitgimiz kelyapti.

- Yo'q, mumkin emas, butun mamlakat sarosimaga tushib qoladi!

- Sira qo'ymadingiz-qo'ymadingiz-da, nima ham derdim, mayli, chala qolinglar, - oxiri rozilik beribdi mushuk. - Lekin bir shartim bor, bobom mendan ranjimasliklari uchun avval men bu yerdan g'oyib bo'laman. Bordi-yu, mening shu yerda bo'la turib, sizlami zangga yaqinlashtirganimni bilib qolsa bormi, sho'rim quriydi

- Yaxshi, tezroq qochib qol, bo'lmasa, biz chalib yuboramiz, - deb xursand bo'lishibdi maymunlar dik-dik sakragancha.

- Hoy, to'xtanglar, men uzoqlashmaguncha zangga tegmay turinglar, ko'zdan g'oyib bo'lganimdan so'ng uringlar, - deb qichqiribdi yugurib ketayotgan mushuk.

- Tezroq yugur!

- Sabr qilinglar! Shoshmanglar! - qichqiribdi mushuk. - Men hali sizlami ko'ryapman...

- Tezroq! - deb qichqirishibdi sabrsizlanib maymunchalar.

Mushuk ko'zdan g'oyib bo'lishi bilanoq maymunchalar tayoq topib kelishibdi-da, daraxt shoxida osilib turgan ari inini ura ketishibdi. Rostdanam zarbadan arilar zanga o'xshab zuvillab ketishibdi. G'ij-g'ij ari to'la in yerga qulab tushibdi. Maymunchalar hayratdan og'iz ochib qotib qolishibdi. Shu mahal bir to'da ari osmonga ko'tarilibdi-yu...

Bu nima! Qattiq g'azablangan arilar maymunchalaming qulog'i bormi, bo'yni bormi, to'g'ri kelgan joylami chaqibdi. O'zlarini yo'qotib qo'ygan maymunchalar duch kelgan eqqa tumtaraqay qocha boshlashibdi, ammo arilar ularni quvlab ketibdi. Shunda maymunchalar havzani ko'rib qolishib, chopa borib o'zlarini unga tashlashibdi. Ular arilar qaytib uchib ketmaguncha suv tagida uzoq o'tirishlariga to'g'ri kelibdi. Arilaming g'uv-g'uvi tugashi bilan maymunchalar suv lagidan sho'ng'ib chiqishibdi. Bundoq qarasalar qirg'oqda ularni laqillatib ketgan haligi mushuk o'tirganmish. Mushuk esa maymunchalarning suvdan chiqib ketishlarini ataydan kutib o'tirgan ekan. U maymunlami ko'rishi bilanoq o'sha joyda yetilib turgan achchiq qalampir niholiga enboshlab olibdi.

Maymunlar mushukning oldiga kelib:

- Hoy mushuk, bu yerda nima qilib o'tiribsan? - deb so'rashibdi.

Bobomning bog'ini qo'riqlab o'tiribman. Mevalar ayni pishgan mahal emasmi.

- Nima? Meva? Tatib ko'rsak bo'ladimi?

- Bo'ladi, faqat mening oldimda emas. Bobom sizga ruxsat berganimni bilib qolsa bormi, mendan jahli chiqadi. - Maymunlar mushukning ko'zdan g'oyib bo'lishini kutib turishibdi, keyin bir talay achchiq garmdoridan terib, og'zilarini to'ldirib chaynay boshlabdi...

- Birdan hammalarining og'zilaridan alanga chiqqanday bo'libdi! Maymunlarning ko'zlaridan yosh otilib, achchiq garmdoridan lablari shishib ketibdi! Mushuk bo'lsa laqmalami laqillatganidan xursand bo'lib, juftakni rostlab qolibdi.

Uzoq sharq kitobidan.